






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar–sentabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 21 101,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 101,2 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


| | | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|-----------------|-----------------|---|
| | | 2019- yil | 2020- yil | |
| | I. YaHM | 18 682,5 | 21 101,5 | 101,2 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 17 071,6 | 20 403,2 | 101,2 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 1 610,9 | 698,3 | 101,1 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 17 071,6 | 20 403,2 | 101,2 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7 616,8 | 9 521,3 | 103,1 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 4 322,1 | 5 053,5 | 100,5 |
|  | sanoat | 2 772,8 | 3 290,3 | 98,2 |
|  | qurilish | 1 549,3 | 1 763,2 | 104,7 |
| | Xizmatlar | 5 132,7 | 5 828,4 | 99,1 |

| | | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|--|------------|-----------|---|
| | | 2019- yil | 2020- yil | |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 342,4 | 1 497,2 | 97,3 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 043,2 | 1 154,6 | 102,0 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 2 747,1 | 3 176,6 | 98,9 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 10 923,2 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga pasaygan.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 46,7 % ni, sanoat tarmog`i 16,1 % ni, qurilish 8,6 % ni va xizmatlar sohasi 28,6 % ni tashkil qildi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|--------------|--------------|
| | I. YaIM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 91,4 | 96,7 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 8,6 | 3,3 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
|  | Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi | 44,6 | 46,7 |
| | Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) | 25,3 | 24,7 |
|  | sanoat | 16,2 | 16,1 |
|  | qurilish | 9,1 | 8,6 |
| | Xizmatlar | 30,1 | 28,6 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar | 7,9 | 7,3 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,1 | 5,7 |

| | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|
|  boshqa xizmat tarmoqlari | 16,1 | 15,6 |





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,1 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 46,7 %), qurilishda – 104,7 % (8,6 %) ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`i – 98,2 % (16,1 %) va xizmatlar sohasida – 99,1 % (28,6 %) solishtirma narxlarda hajmlarning kamayish kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 97,3 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 98,9 % (15,6 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqada 102,0 % (5,7 %) o`shish kuzatildi.




Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi



2020- yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 121,3 % va sanoatda – 120,8 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

